



Mustaqillikning ilk davrlarida yozilgan qo'llanmalar

Nematullayeva Maftuna Hikmatulla qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU 2-bosqich magistranti

Rashid Zohidov

Ilmiy rahbar, filologiya fanlari doktori, professor

Annotatsiya: Maqolda mustaqillikning ilk davrida "Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik" faniga oid qo'llanmalar va ularning tasnifi keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: qo'llanma, Mustaqillik, Erkinov, Xabibullayev, fan tarixi, qiyoslash, tasnif, tahlil

Mustaqillik yillarida barcha gumanitar sohalarda bo'lgani kabi manbashunoslik va matnshunoslik yo'nalishida ham sezilarli siljishlar kuzatildi. Jumladan, 1997-yili matnshunos olim A.Erkinov tomonidan "Matnshunoslikka kirish" qo'llanmasi tayyorlandi. Qo'llanma ikki qismdan iborat bo'lib, "Matnshunoslikning nazariy asoslari. Matnshunoslikning maqsad va vazifalari" deb nomlangan birinchi qismda matn tarixi, tahriri, variantlilik, sharq qo'lyozmalari va ularning muhim belgilari, matn va davr tili, matn va adabiy muhit, qo'lda ko'chirganda yuzaga keluvchi o'zgarishlar, matnni anglagan holda o'zgartirish, konektura, gloss va interpoliyasiya, ko'chirma nusxani aniqlash va matn tasnifi, matn yaratilgan zamon va makonni aniqlash, matnni nashr etish va nashr turlari kabi mavzularda umumiy ma'lumotlar beriladi. Nomlanishiga ko'ra garchi bu qismda



matnshunoslikning nazariy asosi bilan tanishtirish maqsad qilingan bo'lsa-da, bahs yuritilgan mavzular ko'proq amaliy matnshunoslik yo'nalishida shakllantirilgan. "Eski o'zbek yozuvidagi matni ustida ishlash. Matnshunoslik faoliyati" deb nomlangan ikkinchi qismda matnning imlo xususiyatlari, eski o'zbek yozuvidagi harflarning qo'lyozmadagi shakliy xususiyatlari kabi amaliy matnshunoslik masalalari misollar yordamida izohlangan. 2000-yil ¹manbashunos olim Alimulla Xabibullayev tomonidan "Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik" nomli qo'llanma chop etildi. Qo'llanmani muallif kamtarlik bilan "Qisqacha kurs" deb izohlagan bo'lsa ham, aslida, uning qurilishi bir necha o'quv yili uchun yetarli materialdan iborat mavzular ko'lamidan tashkil topgan. Qo'llanma "Manbashunoslik" va "Matnshunoslik asoslari" deb nomlangan ikki bobga ajratilgan. Avvalgi bobning birinchi bo'limida manbashunoslik fanining predmeti, rivojlanish yo'nalishlari, asosiy vazifalari, manbalarning tur va shakllari, manbashunoslikka yondosh sohalar haqida umumiy ma'lumotlar berilgan. Bobning "Yozma manbalar tarixidan" deb atalgan ikkinchi bo'limi yozuv tarixiga oid mavzu bilan boshlanib, keyin turli davrlarda yozilgan adabiy manbalar xronologik asosda tavsif etilgan. Mazkur bo'limning qolgan kismi manbashunoslik va matnshunoslikning amaliy sohasiga tegishli masalalarga bag'ishlangan. Ikkinchi bob uch bo'limdan iborat bo'lib, birinchi bo'limda matnshunoslik fanining predmeti, asosiy vazifalari va rivojlanish yo'nalishlari ko'rsatilgan. Ikkinchi bo'limda Islom davri matnshunosligining vujudga kelish tarixi to temuriylar davri matnshunosligigacha davrlarga bo'lib o'rganilgan. "Matnshunoslikning nazariy masalalari" deb nomlangan uchinchi bo'limda sohaning amaliy va nazariy jihatlari qorishiq holda tavsifiy bayon etilgan. Qo'llanmaning tuzilishi haqidagi qisqacha ma'lumotlar mana shundan iborat.

Endi mazkur manbada mavzularning yoritilish xarakteri, qo'llanmaning soha rivojidadagi ahamiyati va o'rni haqida to'xtalsak. Har birida muayyan muammo aks etgan

¹ A. Xabibullayev. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik, TDSHI, 2000 y, 134 b.



mavzularning nomlanishi va ketma-ketligi ilmiy tizimga bo'ysundirilgan. Albatta bu tizimni shakllantirishda A.Habibullaevga rus matnshunos va adabiyotshunos olimlaridan D.Lixachev, S.Reyser, E.Bertels, A.Semenov, G.Vinokur, M.Osmanovlarning, shuningdek, P.Shamsiev, A.Rustamov va boshqa o'zbek manbashunos va matnshunos olimlarining nazariy qarashlari va ilmiy tajribalari dasturulamal vazifasini o'tagan. Lekin tanlangan mavzular qanchalik ko'lamdor va ularda aks etgan masalalar qanchalik yirik bo'lmasin, ilmiy hodisalarga berilgan ta'riflarda nazariy tugallikning maromiga etmagani, qo'yilgan vazifalar yechimida tadqiqiy natijalardan ko'ra tavsifiy ma'lumotlarga suyanib qolish kuzatiladi. Bu ham tabiiy. Majozan aytsak, ko'milib, ba'zan bekilib qolgan qadim yo'llarning davomidan yangi yo'l ochish har doim ham oson kechgan emas. Bunday holatda keng, ravon, qulay va boshqa ichki-tashqi qonuniyatlarning barchasiga javob beradigan mukammal yo'l taqdim qilinishini talab etish to'g'ri emasdir, balki. Nima bo'lgandayam, A.Habibullaevning "Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik" qo'llanmasi o'z davri uchun dolzarb va qaysidir darajada sohaning umumiy kursini belgilab bergan muhim manbadir. 2012-yil manbashunos olimlar M.Hasaniy va A.Habibullaev muallifligida "Adabiy manbashunoslik va matnshunoslikning nazariy masalalari" nomli o'quv qo'llanma chop qilindi. Amaliy matnshunoslikning eng mashaqqatli ishchi jarayonini o'zida aks ettirgan "Qo'lyozmalarga dastlabki ishlov berish" va "To'liq yoki qisqacha tavsifli fixrist kitoblarini tuzish" kabi boblarini e'tirof qilgan holda bu kitobni "Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik" qo'llanmasining to'ldirilgan varianti deyish mumkin.

Shu o'rinda Abdumajid Madraimov hamda Gavhar Fuzailovanning "Manbashunoslik" o'quv qo'llanmasi ham e'tiborga molik. Mazkur qo'llanmada ikki bo'limdan iborat bo'lib, manbashunoslik fanining maqsad va vazifalari, o'rganish va o'qitish usullari, qadimgi zamon manbalari haqida muhim ma'lumotlar berilgan. Manbashunoslik tarixi va uning muammolari haqida batafsil yoritilgan. Fan haqida umumiy tushuncha hosil qilish va ularda qiziqish uyg'otish va O'zbekiston tarixini manbalar asosida mustaqil o'rganish malakasini



oshirishdan iborat. Bundan tashqari qo'llanmada birinchi bor manbalarni o'rganish va o'rgatish usullari bayon etilgan, Alisher Navoiyning tarixiy asarlari, Turkistonning Chor Rossiyasi mustamlakachiligi, sho'ro va mustaqillik davri manbalari tavsifi keltirilgan, arab, fors va o'zbek tillaridagi yozma manbalar xususiyatlari alohida alohida tushuntirilgan. Manbashunoslik fani ko'p asrlik an'anaga ega bo'lsa-da, yurtimiz manbashunosligi yuqorida zikr etilgan asarlarda umumlashtirishga harakat qilindi. Manbashunoslikni o'rganish uchun birinchi galda tarixga oid ilmiy tadqiqotlar, yozma yodgorliklar nashrlari va birlamchi yozma manbalar bilan bevosita ishlashga to'g'ri keladi. Bu sohada Y.G'ulomov, B.A.Ahmedov, A. O'rinboyev kabi yirik olimlar asarlari, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan qo'lyozmalar tavsifini o'z ichiga olgan 11 jildlik monografik katalog hamda maxsus katalog — fixrist, tadqiqotlar bo'lg'usi manbashunoslar uchun namuna bo'lib xizmat qilishi mumkin.

2017-yil manbashunos olim Q.Sodiqov tomonidan filologiya va tillarni o'qitish (mumtoz tillar bo'yicha) ta'lim yo'nalishida o'qiyotgan talabalar uchun "Matnshunoslik va manbashunoslik asoslari" o'quv qo'llanmasi chop etildi. Bu qo'llanma bir necha jihatlari bilan oldin qilingan ishlardan farq qiladi. Besh bo'limdan iborat qo'llanmaning struktur qurilishi va metodologik asosi baquvvat. Har bir bo'limda tartib bilan aks ettirilgan mavzular boy ma'lumotlar bazasi bilan ta'minlangan. Dastlab talabalarga fan haqida boshlang'ich tasavvurni berish uchun O'rta Osiyo xalqlarining yozuv madaniyati tarixi, xususan, kitobshunoslik sohasining ilk atamalaridan biri bitig, kitap so'zlarining tadrijiy tarixi, yozuv turlari, alifbo tizimi va matnshunoslikdagi ular bilan bog'lik hodisalar o'rganilgan. Shu yo'l bilan qo'llanma muallifi talabalarni fanning alifbosi va uning vujudga kelish omillari bilan tanishtirgan. Chunki, har qanday matn yozuv orqali namoyon bo'lar ekan, matnshunoslik ixtisosligini tanlagan talaba o'rganayotgan obyektining genezisidan xabardor bo'lishi kerak. Muallif qadim turkiy manbalar tadqiqi bo'yicha orttirgan ko'p yillik tajriba va malakasiga suyanagan holda mavzularni ko'proq manbashunoslik



yo‘nalishida yoritgan. “Ilk va o‘rta asrlarda kitobat ishi” deb nomlangan ikkinchi bo‘limdan ko‘zlangan maqsad talabalarda yozuv madaniyati tarixi haqida bilim hosil bo‘lganidan so‘ng yozuvlardan tashkil topgan kitob va uning ilk namunalari xususida xabar berib, ularning e‘tiborini matnshunoslik masalalariga qaratish. Negaki, qadimiy qo‘lyozma kitoblarning dunyoga kelishiga sabab bo‘lgan yozuv ashyolari, yozuv qurollaridan tortib, qo‘lyozma kitobning muqovasi, tashqi tuzilishi, badiiy bezaklarigacha bo‘lgan jihatlar matnshunoslik ilmda o‘rganiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. П.Шамсиев таржимаси. – Т.: ЎзССР ФА нашр., 1948. – 82 б.
2. Шамсиев П. Ўзбек матншунослигига оид тадқиқотлар. – Т.: Фан, 1986. –163 б.
3. Эркинов. А. Матншуносликка кириш. –Т.: Нашриётсиз, 1997. – 50 б.
4. Эркинов А., Полвонов Н., Аминов Ҳ. Муҳаммад Раҳимхон II – Феруз кутубхонаси фехристи. – Т. : “Янги аср авлоди”, 2010. – 384 б.
5. Ҳабибуллаев А. Адабий манбашунослик ва матншунослик. – Т.: Тошкент Давлат Шарқшунослик институти, 2000. – 172б.
6. Ҳакимов М. Навоий асарлари қўлёзмаларининг тавсифи. – Т.: Фан, 1983. – 199 б.
7. Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т.: Фан, 1991. – 52 б.
8. Ҳамидова М. Қўлёзма манбалар – адабий манба. – Т.: Фан, 1981. –123 б.
9. Ҳасанов Б. Алишер Навоийнинг “Сабъат абхур” луғати. – Т.: Фан, 1981. – 102 б.